

ABDURASHID IBROHIMNING “OLAMI ISLOM VA YAPONIYADA ISLOMNING TARQALISH” ASARIDA XX ASR BOSHLARIDAGI TOSHKENT TARIXI

Turdimirzayev Elyorbek Abduqayum o'g'li

O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8002856>

Annotatsiya: Tarix sohasida qilingan biror-bir ish, shu ishga aloqador boshqa bir qilinadigan tadqiqotga yo'l ochadi. Chunki tarix sohasidagi tadqiqotlar o'tmishda aslida nima bo'lgan degan savolga to'raligicha javob bera olmaydi. Shu sababdan tarixni yozish o'tmishni yozadigan boshqa qo'lga yangittan ehtiyoj tug'diradi. Xulosa shuki, bu maqolamizda tarixning butun haqiqatlarini ochib berish davosidan yiroqmiz. “Abdurashid Ibrohimning “Olami islom va Yaponiyada islomning tarqalishi” nomli bu maqolamizning diqqatni tortadigan jihati XX asr boshlarida Rossiya musulmonlarining ko'zga ko'ringan nomlaridan biri Abdurashid Ibrohim va uning Turkiston amalga oshirgan sayohatlari va bu sayohatlar natijasida yozilgan to'liq nomi “Olami islom va Yaponiyada islomning tarqalishi” nomli asarida XX asr boshlaridagi Toshkent tarixini tadqiq qilishdan iborat hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Abdurashid Ibrohim, Toshkent, Tatarlar, Rossiya imperiyasi, Olami Islom.

XX asrning buyuk olimi va sayyohi Abdurashid Ibrohim 1857-yil 23-aprel Rossiyaning G'arbiy Sibir mintaqasida joylashgan Tobolsk viloyatining Tara shahrida tavallud topgan. [2, P. 7] Ajdodlari asli o'zbek bo'lib, to'rt asr oldin Buxorodan ko'chib kelib, Taraga joylashib yashab qolishgan. Otasining ismi Umar Bey, onasining ismi Afifa honim edi. Otasi o'z davrining siyosiy voqealariga aralashib, Sibir muxtoriyati uchun kurashgan kishi edi. A.Ibrohimning ota tomondan ham, ona tomondan ham ota-bobolari ziyoli kishilar bo'lishgan. Onasi Afifa xonim Bashqurt tatarlaridan bo'lib, 40 yilga yaqin Tara shahrida qizlarga muallimalik qilgan. [3, P. 18] 1880-1884 yillar davomida Abdurashid Ibrohim Madinada ta'lim oladi. [4, P. 76]. Abdurashid Ibrohim 1908-1910-yillarda uzoq muddatli sayohatga chiqadi va bu sayohati natijasida “Olami islom va Yaponiyada islomning tarqalishi” nomli asrini yozadi. Biz mana shu asrni Toshkentga alqador qismini tadqiq qilib yoritib berishga harakat qilamiz. Abdurashid Ibrohim 1944-yil 17-avgust kuni Tokiyoda vafot etadi.

Abdurashid Ibrohim o'z sayohatnomasini “Milodiy 1907-yil oxirlarida oilamni asl vatanim bo'lgan Tara shahrida qoldirib, Turkiston tomon yo'lga chiqdim” [1, P. 41] deb boshlaydi. U Toshkent shahrigacha Omsk, Petropavlovsk, Chilabi, Ufa, Kenil, Orenburg, Oq-tuba, Oqmasjid va Turkiston shaharlarini bosib o'tganligini aytadi.

Abdurashid Ibrohim Toshkentda bir oy muddatga yaqin istiqomat qiladi va bu yerda juda ko'p insonlar bilan suhbatlashib o'z xulosa va fikrlarini “Olami islom” asarida taqdim qiladi. Olim Toshkent haqida fikr yuritib, Toshkent bundan 40 yil avval musulmon mamlakati edi. Bugun Rossiyaning bir viloyati va butun Turkiston, Farg'ona va Sirdaryo viloyatlarining boshqaruv markazidir. Toshkentni tashqaridan bir shahar deb tasavvur qilinsada, ichki holatda ikki mamlakat kabi ikki dahaga (mahallaga) bo'lingan, yani bir shahar bo'lgani holda ikki hil idora qilinadi. U “ruslar mahallasi”, “musulmonlar mahallasi” ga bo'lingan.

Abdurashid Ibrohim Toshkentni ikki turar joy mahallasiga ajratganligida, milly va diniy jihatdan bo'lganligini ko'rishimmiz mumkin. Birinchisi ruslar ko'chirilib keltirilgan aholi yani nasroniy aholi, ikkinchisi Toshkentning tub musulmon aholisi. Olim ruslar yashab istiqomat qiladigan joylar haqida ma'lumot berib shunday deydi: “rus mahallasi, bu yerda ruslar

yashaydi. Musulmonlar ham bor lekin juda ozdir. Ularning ham aksaryati yerli aholi emas, Rossiyaning ichidan kelgan tatarlardir. (Yerli aholi atarlarni Nog'aylar deydi, zotan butun Turkiston aholisi Rossiya tatarlarini Nog'ay derlar). Rus Toshkentida juda tartibli binolar va do'konlar, mukammal ko'chalar, ozoda yo'laklar, elektr chiroqlari va hokazolar bor. Bu deyarli Yevropa namunasidir". [1, P. 42] Sayyoh musulmon Toshkenti haqda: "musulmon Toshkenti 500 yil oldin qanday bo'lsa hozir ham shundaydir. Bahor oyining boshida va kuzda shaharda bir uydan ikkinchi uyga yurishning iloji yo'q, shu qadar loy bo'lib ketadiki, hatto bazi ko'chalarda hayvonlar ham o'ta olmaydi. Vaholanki, shahar o'sha shahar, Toshkentdir. Ma'muriyati bitta, daromadi bitta, aholisining ko'pchiligi musulmonlardir. Soliqlar musulmon uylaridan yig'iladi, lekin xarajatlar xristian ko'chalariga sarflanadi". [1, P. 42]

Abdurashid Ibrohim bu holatlarni faqatgina Toshkentga xos emasligini, balki butun Turkistondagi vaziyat shunday ekanligini aytadi. "Rus Samarqandi toza va obod, Musulmon Samarqandi botqoqlik. Rus Qo'qoni obod va tartibli, musulmon Qo'qonida esa piyoda yurish emas hatto hayvon ustida yurishni ham iloji yo'q. Rus Marg'iloni ham shunday (obod va tartibli), musulmon Marg'iloni hamisha musulmonlarga munosibdir! Bu shunday davom etaveradi... Qayerda bo'lmasin, ruslar hukmron kuchga egadir, mamlakatni boshqarish va nazorat qilish ham ularning qo'lida, ularning ko'chalaridagi barcha xarajatlar davlat daromadlari hisobidan qoplanadi. Musulmon ko'chalariga pul behuda ketmaydi, yo'laklar yo'q, chiroqlar yo'q, hech narsa yo'q" [1, P. 42] deb qattiq istirobga tushadi.

Abdurashid Ibrohim bu borada asl masala ko'chalar yoki yo'laklarda emasligini, balki bunday holatlardan chet ellik sayohatchilarga musulmonlarni yomonlab, ularni ojiz va kuchsiz qilib ko'rsatish, g'aflat uyqusida yotganligini bildirish, bundan tashqari eng daxshatli musulmonlarni shu holatda bo'lishlariga islom dinini aybdor qilib ko'rsatish edi deb takidlaydi. Bu ochiq zulumlarga e'tibor qaratilmayotganidan afsuslanib shunday deydi "Odamning ko'rliigi ajoyibdir, bunday ochiq-oydin shafqatsizlik va vahshiyliklarga e'tibor ham qaratmaydi-da, balki har doim aybni Islom diniga yuklashga jur'at etadi, hatto ko'cha yo'laklari uchun ham dinni mas'ul deb biladi". [1, P. 42]

Abdurashid Ibrohimning bu fikrlaridan Rossiya imperyasining Turkistonda amalga oshirayotgan siyosatining asl mohiyatini to'laligigacha tushunganligini anglab yetish qiyin emas. Rus bosqinchilarining asl maqsadi mahalliy xalq ming yillardan beri e'tiqot qilib kelgan islom dinini tahqirlash, aholini ruslashtirish va xristianlashtirish edi. Fozilbek Otabek o'g'li o'zining "Dukchi Eshon voqeasi" nomli risolasida rus imperyasini bu siyosatini shunday ifodalaydi: "Tarix milodiyning 1895-yillarida chor hukumatining zolim generallari Turkiston o'lkasiga qo'yilg'on "missioner" yani din buzuvchi Ostroumovning taklifi bo'yicha Turkiston o'lkasi xalqini ko'r kabi iste'dod qorong'usida qoldirmoqlikni maslahatida "Russkiy tuzemniy maktablar" ochmoqqa kirishdilar. ...musulmonlarni juma namozlarida podishohning nomini qo'yib o'qimoq, qur'oning "Val mushrikin" degan joylaridan "mushrikin" so'zini chiqarmoq kabi behuda ishlarni amr qildilar. Musulmonlarni nihoyat ezib, qisib, xatto ko'chdan yo pristuf o'tib qolsa, yo beixtiyor ko'rmay qolg'on va o'rnidan turmagan musulmonlar bo'lsa, qaytib kelib urib qamar edilar". [5, P. 20-21] Bu qiyoslar juda og'riqli va tariximizning qora kunlaridir.

Abdurashid Ibrohim asarda Toshkentning aholisi va uning boshqaruviga ham to'xtaladi. U bergan ma'lumotga ko'ra Toshkent aholisi 200 ming kishi, shundan 18 ming nafari nasroniylar, qolganlari musulmonlardir. Toshkent shahar hokimiyati a'zolarining umumiy

soni 72 kishi bo'lib, ulardan 24 nafari musulmonlar, qolganlari xristianlardir. Faqat shahar qonuni quyidagicha belgilandi: Ruslar va musulmonlar aralashgan shaharlarda musulmonlar ko'p bo'lsa ham, shahar boshqaruvida musulmon a'zolar soni ko'p emas, uchdan bir qismini tashkil qiladi. Ma'lumki, hokimlikning munosabati ham ko'pchilik ovoz bilan ko'riladi. Xo'sh, insoniylik qayerda? tenglik qayerda? muomila-munosabat qayerda? Mana XX. asr sivilizatsiyasi! [1, P. 43]deb u o'z munosabatini bildiradi.

Abdurashid Ibrohim Turkistonda e'tibordan chetda qolgan va hayratga soladigan yana bir holatga e'tibor qaratadi. Butun Turkistonda Rossiyadan ko'chib kelgan tatarlar haqida bahs yuritadi. Turkistonning har bir viloyatida tatarlar borligini aytadi. Yuqorida eslab o'tkanimizdek Turkistonliklar tatalarni no'g'aylar deyishar edi. Bu no'g'aylarda ham tenglik yo'qligini, No'g'aylarning ko'pchiligi Turkiston bosqinida harbiy xizmatda bo'lgani, rus askarlari bilan Turkistonga yetib kelgan va dindor birodarlarini otganligi, Turkistonga bostirib kelib u yerda qolishganligi, ularning bir qismi uylanib, oilali bo'liganligini aytadi.

Abdurashid Ibrohim so'zida davom etib, o'sha vaqtda Rossiya hukumati tomonidan Turkiston o'lkasiga hos qonun chiqarilganligini aytib u qonunni qanday ekanligini yozadi: "No'g'aylar butun Turkistonda ko'chmas mulkka ega bo'la olmaydilar" deb no'g'aylarni holatini tushuntiradi: "Endi butun Turkistondagi no'g'aylar uylarini sotishga majbur bo'ldilar. Agar u o'z xohishiga ko'ra sotmasa, davlat auktsionda sotadi. Bu esa no'g'aylarning Turkistonga bostirib kirib mo'min birodarlarini to'kkan qonining mukofotidir"! [1, P. 44]

Shundan so'ng Abdurashid Ibrohim Toshkentda bir oyga yaqin yashaganligi, ulamolardan, mahalliy aholidan ko'p odamlarni uchratganligi va ko'p do'stlar ortirganligi, yozib, ular orqali qo'lga kiritgan ma'lumotlarning xulosasini taqdim etadi.

Olim Rossiya hukumati tomonidan qabul qilingan yana bir qonun mazmunini asarda keltiradi. "Turkiston ma'muriyati rus ma'muriyatidan butunlay ajratildi va bo'lindi. Turkiston musulmon xalqi bugun Rossiya fuqarolarining huquqlariga ega emas, Turkistondagi barcha qonun-qoidalar mahalliy xalqning fe'l-atvori va tabiatiga qarab moslashtirildi".[1, P. 44] Avval aytganimizdek, Toshkent o'sha vaqtda Rossiyaning bir viloyati edi. Lekin Toshkent fuqarosi Rossiyaning fuqarosi emas edi. Olim buni "Toshkentlik musulmonni "fuqaro" emas, "asir" deb atash to'g'riroq bo'ladi" fikr bildiradi. Chunki toshkentliklarga va butun turkistonliklarga fuqaro sifatida munosabat bildirilmas edi.

Abdurashid Ibrohim Toshkent o'sha davrda Turkistonning yirik savdo markazi hisoblanishini, savdogarlar Yevropa markazlaridan kelib, o'z xaridlarini amalga oshirishlarini, musulmonlar orasida sarmoya egalari ham borligi, savdogarlarning ko'pchiligi mahalliy yahudiylar bo'lsa-da, musulmonlardan ham katta obro'li savdogarlar borligini qayd qiladi. U so'nggi yillarda butun Turkistonda paxta savdosi katta mavqega ega bo'layotganligi, paxta tozalash zavodlari ko'pligi, ko'plab hayratga solarli ishlar musulmonlarni qo'lida ekanligini ham takidlaydi. [1, P. 45]

Abdurashid Ibrohim Toshkentdagi maktab va maorifning holatiga ham e'tibor qaratadi. U aytadiki: "Shu paytgacha Turkiston musulmonlari uchun maktab bo'lmagan. Rus tilini biladigan odam mahalliy musulmonlar orasida kam uchraydi. Musulmonlar missionerlardan qo'rqib, bugungacha farzandlarini rus maktablariga bera olmadilar. Shunday qilib, butun Turkiston musulmonlari jaholat dengiziga g'arq bo'ldi, axloqsizlik va ichkilikbozlik shiddat bilan kuchaydi. Bu jihatlarni ko'rgan kishi "Turkiston millati o'limga mahkum xalqdir" degisi keladi. Biroq, xuddi uzoq qorong'u tunlarda ora-sira chaqmoq chaqib turganidek,

Turkistonning har bir shahrida qadim zamonlardan beri musulmonlarning o'zlari yordamida ochilgan kichik boshlang'ich maktab va madrasalar borki, bular ham ozmi-ko'pmi umidlarimizni oqlaydi. Agar hayot asari zuhur bo'ladigan bo'lsa, yana ulardan zuhur bo'ladi. Turkiston bosqiniga 45 yil bo'lgan bo'lsa-da, rus maktablarini tamomlagan bir musulmon yo'q, yaqin kunlarda ham bo'lishi kutilmaydi". [1, P. 46] Munavvar Qori Abdurashixonov ham "Toshkent, 21 sentabr" nomli maqolasida yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. "Shariat va amrga qarshilik qilib, boshqa millatlar nazariga o'z dinu sharafimmizni xor va zalil suratda ko'rguzurmiz. Buni sababi ila olamni qaysi tarfig'a nazar solsak, o'z dindosh va millatdoshlarimmizni xor va boshqa mutamarrin va mutaraqqiy millatlar qoshida sharmsor ko'rurimiz. Buni sababi esa boshqa millatlarni ilm va ma'rifati, biz musulmonlarni g'aflat va jaholatimmiz emasmu?". [6, P. 86]

Olimning bu bergan ma'lumotlarini birma bir tahlil qiladigan bo'lsak haqiqiyatga yaqinligini ko'ramiz. Turkiston musulmonlari uchun maktablar yo'qligini takidladi. Chunki 1907-yilda jadid maktablari endi juda katta qiyinchiliklar bilan faoliyat olib bormoqda edi. 1895-1901 yillarda Toshkentda atiga to'rttagina usuli jadid maktablari tashkil topgan edi. Hukumat tubjoy xalqining ko'zi ochilishiga qattiq qarshilik ko'rsatib borar edi. Jumladan, 1901 yil Munavvarqorining, 1904 yil Abdulla Avloniyning "usuli jadid" maktabini ochish haqidagi arizasini bir necha bor rad etgan edi. [7, P. 23] Musulmonlar missionerlardan qo'rqib, farzandlarini rus maktablariga bera olmayotganligiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi rus-tuzem maktabi 1884-yil 19-dekabrda Toshkentda tashkil etilgan. 1892-yilda Turkistondagi rus-tuzem maktablarini soni 21 taga yetgan. 1917 yilning boshlarida Turkistonda 170 ta rus-tuzem maktablari bor edi. [7, P. 24]

Rus-tuzem maktablarining quydagi maqsadlari bor edi:

- Mahalliy xalqni ruslashtirish

- Turkistonning musulmon aholisini xristianlashtirish

- Yerli aholining ajdodlar tarixi va madanyatini millat xotirasidan o'chirish edi. Bu narsa rus bosqinchilarining azaliy orzusi edi. Rus maktablarini hukumat qancha rag'batlantirmasin, u mahalliy xalqning ichiga kirib keta olmadi. Bu narsa faqatgina Turkistonda-gina emas, ruslar mustamlaka qilgan tatarlar orasida ham shunday edi. "Tatarlar uchun ochilgan rus maktablari o'lik tug'ilgan muassaning o'zginasidirki, buni ushbu ishning nazaryasi va amalyoti yaqqol isbotlab turibdi" [7, P. 24]deb yozgan edi Ismoil Gapirali.

Abdurashid Ibrohim Toshkent xalqi haqida to'xtalib, ularni "mehmondo'st, oliyjanob, munis, favqulodda iste'dodli, porloq aql-zakovatga ega insonlardir. Ular orasida kam bo'lsa-da, maktabda o'qimay turib rus va nems tillarida mukammal gapiradiganlar bor" deb e'tirof qiladi.

Olim yana so'zida davom etib, "Toshkentliklar asl o'zbek yoki aralash turkiy elementlardan tashkil topgan bo'lib, tili sof turkiy o'zbekcha shevadadir. Forscha gaplar ham juda keng tarqalgan. Fors she'riyati va adabiyoti bilan shug'ullanuvchilar ham kam emas. Nega bilmadim, mahalliy musulmonlar, butun Turkiston va Buxoro musulmonlari sart [1, P. 47] deb atalishi odatiy hol, ayniqsa bizning tatarlar va ruslar sart atamasini ishlatishadi. Biroq sartlarning aksariyati buni qabul qilmaydi, ba'zilar esa yomon ko'radi, o'zlarini "shahar ahli" deb ataydilar" [1, P. 47]deb ma'lumot beradi. Abdurashi Ibrohim "Toshkentda madrasalar, katta masjidlar ko'p. Hukumat tomonidan ochilgan kichik kutubxona va kichik muzey ham bor. Boshqa tilga olarli narsa yo'q" [1, P. 47] deb Toshkentdagi xotiralarini yakunlaydi.

Reference:

1. Abdürreşid İbrahim. Alem-i İslam ve Japonya'da İslamiyetin Yayılması I. (Sad Ertuğrul Özalp) – İstanbul: “İşaret Yayınları”, 2012.
2. İsmail Türkoğlu. Sibiryalı Meşhur Seyyah Abdürreşid İbrahim. – Ankara: “Türkiye Diyanet Vakfı”, 1997.
3. Abdürreşit İbrahim. Tercüme-i Halim Ya ki Başıma Gelenler. (Haz: İsmail Türkoğlu) – İstanbul: “Mac Medya”, 2017.
4. İbrahim Maraş. İdil-Ural Türklerinde Cedidcilik (Yenilikçilik) Hareketi: Doktora Tezi. “Ankara üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü”, – Ankara, 2000.
5. Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi eshon voqeasi. (Nash Tay Sirojiddin Ahmad, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev). -Toshkent: Cho'lpon, 1992.
6. Munavvar Qori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan. (nashrga tayyor S. Xolboyev). – Toshkent: “Sharq”, 2001.
7. Qosimov.B. Milliy Uyg'onish. –Toshkent: “Ma'naviyat”, 2002.